



BANKLAR TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI MIKROMOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI

**Tojiyev Javlonbek
Rustamovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID:0009-0003-4678-2423*


Tadbirkorlik subyektlariga qisqa muddatli, yuqori daromadli kredit mahsulotlari va revolver kreditlar ajratilishini samarali yo'lga qo'yish, mikromoliyaviy xizmat turlarini (mikrolizing – 750 million so'mdan oshmaydigan miqdorda, mikrokredit – 300 million so'mdan oshmaydigan miqdorda, mikroqarz – 100 million so'mdan oshmaydigan miqdorda) ko'paytirish va rivojlantirish taklif etilgan;

tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga “Biznesga birinchi qadam”, “Oson-2”, “Ekspress” va “Mahalla-Biznes” turdagi mikroqarzlarni taqdim etish orqali tadbirkorlik subyektlari faoliyatini izchil rivojlantirish va ularning mikroqarzlardan foydalanish imkoniyatlari yanada kengaytirishning zarurligi asoslangan;

tijorat banklari tomonidan rasmiy daromadga ega bo'lmagan shaxslar uchun o'zini o'zi band qilish va oilaviy biznesning yangi yo'nalishlarini topishga ko'maklashish, yer maydonlarida ijara asosida faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaliklari uchun barcha turdagi mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish, shu jumladan kichik uskunalar va qishloq xo'jaligi texnikalarini sotib olish uchun 300 mln. so'mgacha miqdorda mikrokreditlar ajratish taklif etilgan;

tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan mikrokreditlar miqdorining 50 foizigacha kafillik taqdim etish va mikrokreditlardan foydalanishlarida kompensatsiya yordamlari ko'rsatish orqali mikromoliyalashtirish bozori hajmini va mikromoliyaviy xizmatlar qamrovini oshirishning zarurligi asoslangan.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda mikromoliyalashtirishning rolini oshirish uchun ushbu sohaning qulayligi, ya'ni kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratish, samaradorligi va barqarorligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo etadi. Bunda asosiy yo'nalishlar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin (1-rasm):



1-rasm. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda mikromoliyalashtirishning rolini oshirishchora-tadbirlari¹

1. Mikromoliyalashtirish sohasini tartibga solishning normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish: aniq va shaffof qonunchilikni ishlab chiqish zarur; qonunchilikda mikromoliyaviy tashkilotlar va qarz oluvchilarning huquq va majburiyatlari aniq belgilanishi, mikromoliyaviy tashkilotlarning litsenziyalanishi, kapitali, zaxiralari va hisobotlariga qo'yiladigan talablar aniq belgilanishi kerak; mikromoliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, shu jumladan mikrokreditlash shartlari to'g'risida to'liq ma'lumot olish va mikromoliyaviy tashkilotlarning xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish huquqini ta'minlash; mikrokredit va mikroqarzlarni bo'yicha vositachilik qiluvchilar faoliyatini tartibga solishni joriy etish zarur; o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlarning rivojlanishini rag'batlantirish; mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyati uchun standartlarni belgilay oladigan va ularning bajarilishini nazorat qila oladigan o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash zarur.

2. Mikromoliyaviy infratuzilmani rivojlantirish: respublikaning barcha hududlarida tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi mikrokredit tashkilotlari, lombardlar, kredit byurolari va shu kabi tashkilotlar sonini ko'paytirish; zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, shu jumladan mikromoliyalashtirish sohasida mobil to'lovlar, biometrik identifikatsiya va sun'iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish, bu esa operatsion xarajatlarni kamaytiradi va mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshiradi; kafolat fondlari tizimini rivojlantirish, mikromoliyaviy tashkilotlarga tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlar bo'yicha kafolatlar berishni ta'minlaydigan, mikromoliyaviy tashkilotlarning

¹Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

risklarini kamaytirish va mikromoliyalashtirish hajmini oshirish imkonini beruvchi kafolat fondlari tizimini rivojlantirish zarur.

3. Mikromoliyaviy tashkilotlarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash: grantlar va subsidiyalar taqdim etish, xususan, mikromoliyaviy tashkilotlarga yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, joriy etish va kadrlar tayyorlash uchun grantlar va subsidiyalar berish maqsadga muvofiqdir; mikromoliyaviy tashkilotlarga investitsiyalarni jalb etishga, shu jumladan, investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va davlat kafolatlarini berish orqali ko'maklashish; mikromoliyaviy tashkilotlar xodimlarini tayyorlash, ularning malakasini oshirish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga qaratilgan o'qitishni tashkil etish kerak.

4. Mikromoliyalashtirish samaradorligini monitoring qilish va baholash: ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, mikromoliyalashtirish bo'yicha ma'lumotlarni, shu jumladan mikrokreditlar hajmi, foiz stavkalari, kredit shartlari, kreditlarni qaytarish stavkalari va mikromoliyalashtirishning tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishiga ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish; mikromoliyalashtirish samaradorligini baholash va sohadagi muammolarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazish; monitoring va baholash natijalarini nashr etish, ya'ni jamoatchilikni xabardor qilish va qarorlar qabul qilish uchun mikromoliyaviy monitoring va baholash natijalarini nashr etish zarur.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi davlat, mikromoliyaviy tashkilotlar, tadbirkorlik subyektlari va jamoatchilikning muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarini talab qiladi. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda mikromoliyalashtirishning rolini oshirishga va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

2020-2024-yillar davomida mikromoliyaviy tashkilotlar tomonidan ajratilgan mikrokreditlar va mikrolizing xizmatlarining jami aktivlaridagi salmog'i 7 foizli bandga o'sib, o'rtacha 89,1 foizni tashkil qilgan. Bunday holat jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxslarning qisqa va uzoq muddatli mikroqarzlar, mikrokreditlar, shuningdek mikrolizing, faktoring operatsiyalari va boshqa mikromoliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabning sezilarli darajada oshganidan dalolat beradi.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklaridan mikrokredit olganlar soni 4716 nafarni tashkil etib, 2020-yilning 1-yanvar davriga nisbatan 2,4 barobarga oshgan yoki 2053 nafarga ko'paygan. Shuningdek, tahlil qilingan davr oralig'ida mikrokredit shartnomalari soni qariyb 3 barobarga oshgan yoki 4730 nafarga ko'paygan. 2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, 2020-yildan buyon O'zbekistonda aholining tijorat banklari bilan tuzgan mikrokredit shartnomalari soni 3,2 barobarga, kredit olgan fuqarolar soni esa 2,6 barobarga oshgan. Mazkur o'sishga chakana bank xizmatlari bozorining rivojlanib borayotganligi, raqamli bank xizmatlari ko'lamining kengayishi hamda yangi bank mahsulotlarining joriy qilinishi asosiy omil bo'lgan. Shu bilan birga mikrokreditlar bo'yicha har bir qarz oluvchiga to'g'ri keladigan mikrokredit shartnomalar soni 1,5 tadacha ko'paygan.